

UMURTQASIZ HAYVONLAR. SIPUNKULALAR (SIPUNCULA) VA EXIURALAR (ECHIURA) TIPLARI. ULARNING YASHASH TARZI VA RIVOJLANISHI.

Ruxsora Turg'untosheva Boxodir qizi

Andijon Davlat Pedagogika Instituti

Aniq va Tabiiy Fanlar Fakulteti

Biologiya yo'nalishi 1- bosqich 102 - guruh talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Exiuralar va Sipunkulalar tiplariga kiruvchi umurtqasiz hayvonlar haqida ma'lumot keltirilgan. Exiuralar va sipunkulalarning aniq sistematik o'рни ma'lum emas. Exiuralarning 150 ga, sipunkulalarning 250 ga yaqin turi ma'lum.

Kalif so'zlar: Exiura, sipunkulalar, troxofora, metamer, yeryong'oq qurtlar, bonelliya, xartum, pelagosfora, mollyuska.

Аннотация: В этой статье представлена информация о беспозвоночных, принадлежащих к типам Exiura и Sipuncula. Точное систематическое положение exiura и sipuncula неизвестно. Известно около 150 видов exiura и 250 видов sipuncula.

Ключевые слова: Exiura, сипункула, трохофора, метамер, арахисовые черви, бонеллии, хартум, пелагоспора, моллюск.

Abstract: This article provides information on invertebrates belonging to the phyla Exiura and Sipuncula. The exact systematic position of exiura and sipuncula is not known. About 150 species of exiura and 250 species of sipuncula are known.

Key words: Exiura, sipuncula, trochophora, metamer, peanut worms, bonellia, khartoum, pelagosphora, mollusk.

Exiuralarning aniq bir sistematik o'рни ma'lum emas. Ko'pchilik olimlar ularni halqali chuvalchanglarga yaqin hayvonlar deyishadi. Asosan hayotini dengiz tubida loyga ko'milib o'tkazadi. Ular halqali chuvalchanglardan farq qilib, tanasi va selomi halqalarga ajralmagan. Ularning asosan 150 ga yaqin turi ma'lum.

Sipunkulalar sistematik o'рни exiuralar singari aniq ma'lum emas. Ularning 250 ga yaqin turi ma'lum. Ushbu hayvonlar asosan dengizlarda suv tubidagi loyni kovlab yoki bo'sh naychalarda va chig'anoqlarda yashaydi. Voyaga yetgan davrida yoki lichinkalarida ham hech qanday metamer belgilar ko'rinmaydi.

Sipunkulalarni ba'zan "Yeryong'oq qurtlari" deb atashadi, chunki ba'zi turlarining qisqargan, qalin tanasi qobig'i yeryong'oqqa o'xshaydi.

Exiuralarning 20-30 sm gacha kattalikdagi qopchiqsimon tanasi hamma vaqt deyarli qum yoki balchiqli dengiz tubida maxsus "Joy"ga botgan holda joylashib ko'pincha kam harakat bo'ladi. Tananing bosh tomonidagi uzun "Xartum" o'simtasi esa juda harakatchan, bu exiuraning oziq oluvchi va nafas oluvchi organidir.

Exiuralar ayrim jinsli hayvonlar, jinsiy dimorfizm keskin rivojlangan bonelliyaning urg'ochisi yirik, erkagi juda mayda bo'lib, urg'ochisining nefridiylari bo'shlig'ida yashaydi. Ular ustida olib borilgan kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, lichinkalar yashash sharoiti ularning jinsi rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Lichinkalar alohida boqilsa, faqat urg'ochi bonelliya, agar lichinkalar voyaga yetgan urg'ochisi solingan idishda boqilsa parazit erkak bonelliylar rivojlanadi. Sipunkulalar ayrim jinsli hayvonlar hisoblanadi. Ularning tuxumidan troxofora lichinkasi chiqadi.

Lichinkasi metamarfozni o'tab rivojlanadi. Pelagosfora- lichinkasi plankton organizmlar bilan oziqlanib, uzoq rivojlanadi. Sipunkulalar filogenezi tortishuvchi muammo bo'lib kelmoqda. Ularni lichinkasi rivojlanishi hamda ular bilan yonma-yon bo'lgan uchta takson ayrim tipik belgilari ham mazkur taksonda namoyon bo'ladi. Shuning uchun ayrim sistematiklar bularni halqali chuvalchanglardan kelin chiqqan desa, boshqa tadqiqotchilar mollyuskalardan kelib chiqqanligini ta'kidlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Umurtqasizlar zoologiyasi" O.Mavlonov , Sh.Xurramov, X.Eshova .
2. "Umurtqasizlar zoologiyasi" Edvard E.Ruppert, Richard S.Foks, Robert D.Barns